

## **FARD. QIT'A. MUSTAZOD JANRLARI XUSUSIDA**

**Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna** Termiz davlat universiteti akademik litsiyasi tili va adabiyot fani o'qituvchisi [abduraxmonovamavludao@gmail.com](mailto:abduraxmonovamavludao@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Fard, qit'a, mustahzod janrlari haqida ma'lumot berildi, ularning xususiyatlari, uslubiy jihatlari o'rganildi. Fard - arabcha so'z va yagona, yakka, tanho ma'nolarini anglatadi, fard ilk so'zlar bor misrada iborat bulgan ekan. Fard she'riyatning kichik turi sifatida mumtoz adabiyotda ancha mashhur bo'lib, uning mavzular olami keng va qator muammolar tevaragida bahs yuritish bilan ajralib turadi. Fard - odob-axloq, ta'lim-tarbiya, ishq- muhabbat, adolat va ma'naviy poklik mavzularida bitilib, ezgulik g'oyalari targ'ib qiladi. **Qit'a** - boshqa bir nomi muqatta', ko'pligi muqattaot, arabcha so'z va u parcha ma'nosini beradi. **Mustazod** - uning lug'aviy ma'nosi ziyod, ortiq, ortirma va ilova yoki qo'shimcha qilmoq demakdir, u janr sifatida o'z taraqqiyoti jarayonida bir tomondan xalq ijodiyoti bilan ikkinchi tarafdin g'azal janri bilan uzviy bog'likdik kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Qit'a, farq, bayt, g'azal, mustahzod, adabiy meros, fardiyot, mufradot

Fard - arabcha so'z va yagona, yakka, tanho ma'nolarini anglatadi, fard ilk so'zlar bor misrada iborat bo'lgan ekan. (Boboev Yu. Muqaddimai adabiyotshinosy. -Dushanbe: Irfon, 1974. -S. 166). Fardning ko'pligi fardiyot, mufradot ekanligi ham ko'plab manbalarda ifodasini topgan (Nosirov O, Jamolov S, Ziyoviddinov M. Uzbek klassik she'riyati janrlari. -Toshkent: O'kituvchi, 1974. -B. 170; Musulmonkulov R. Nazariyai jinsho va janrhoi adaby.-Dushanbe: Maorif, 1987.-S. 41 -42). Boshqa bir manshada fardning ko'pligi afrod va fard - bashar (odamlar) ma'nosini anglatishi (Musulmoniyon R. Nazariyai adabiyot. -Dushanbe: Maorif, 1990. -S. 158-160) yoki "har fardi bashar" - "har bir odam" kabi ko'rinishlari borligi ham o'z e'tiborini topgan. Tojik adabiyotshunosi, professor V. Asroriy fardni bayt bilan bilgan xolda uni fardbayt deb atashgacha yetib boradi(Adabiyot va fol'klor.-Dushanbe: Irfon, 1967. -S. 146).

Fard she'riyatning kichik turi sifatida mumtoz adabiyotda ancha mashhur bo'lib, uning mavzular olami keng va qator muammolar tevaragida bahs yuritish bilan ajralib turadi. Fard - odob-axloq, ta'lim-tarbiya, ishq- muhabbat, adolat va ma'naviy poklik mavzularida bitilib, ezgulik g'oyalari targ'ib qiladi. Fardlarda ayni paytda zamondan shikoyat va adolatsizlikdan nolish kabilar ham ko'zga tashlanadi, goho fard orqali ta'rix ham aytilgan hadisalar ham bor. Fard mundarijasining asosiy shartlaridan biri shoirona

ruh, hayotiy namuna, ibratomuz ma'nolar tajassumidir. Uning she'riy shakl sifatidagi rivoji quyidagilardir: birinchi - shoir badiha yo'li bilan bir bayt she'r aytadi va uning davom ettirilishga zarurat kolmaydi, ya'ni tugallanmay qolishi mumkin.

Ikkinchi - muallif "asar yozish jarayonida ma'lum fikr xulosasiga oid yakuniy ikki misra she'r to'kishi ehtimol, ya'ni qissadan hissa chiqariladi. Uchinchi - suxandon, ijodkor yoki olim o'zining ipmiy risolasini yaratish jarayonida ma'lum fikr targ'ibi yoki badiiy ifoda uchun bir bayt she'r keltirishi mumkin. Masalan, Amiriy "Dahnoma"sining har bir nomasi yakunida bitta fard ilova etiladi va shu bilan o'sha nomaga xotima yasaladi. To'rtinchi - shoir biror voqea lavhasiga oid mulahazasini bir bayt qobig'ida jamlaydi yoki ma'lum bir to'qilgan bayt navbatdagi ajoyib bir qasidaning maydonga kelishini ta'minlashi muqarrar. Bu hodisa ko'pincha mumtoz she'riyatda bayt ul-qasida - qasida bayti nomini olgan, ammo ba'zan yuqorida aytilgan o'sha bayt davom ettirilmay shu tarzda qolib ketish holati ham uchrab turadi va u o'z fardligicha qoladi. Keyingi yillarda Lutfiyning yangi topilgan fardlari marhum adabiyotshunos E. Ahmadxo'jaev tomonidan ommalashtirildi va fard goho mustasno tariqasida uchramasa, asosan, juft holda qofiyalanadi. Misol:

*Yetar chu rizqing, agar xoraduru gar yoqut,  
Uzunga yuklama anduh tog'in, istab kut.*

\* \* \*

*Yuqar yamonlig' angakim, kirar yamon el aro,  
Ko'mur aro urg'on qilur ilgini karo.*

\* \* \*

*Dunyovu uqba ikkisi jam o'lmas, ey rafiq,  
Kimki ikki kema uchin tutar, bo'lur g'ariq. (Alisher Navoiy)*

**Qit'a** - boshqa bir nomi muqatta', ko'pligi muqattaot, arabcha so'z va u parcha ma'nosini beradi, u g'azal yoki qasida qismiga o'xshaydi, matla' va maqta'i bo'lmaydi, kichik she'riy shakl, uning oxirida taxallus ham keltirilmaydi (Boboev Yu. Muqaddimai adabiyotshinosy.-Dushanbe: Irfon, 1974.-S.176). Yu.Boboevning ayni shu risolasida qit'aning ikki baytdan o'n sakkiz baytgacha bo'lishi va qofiyalanish tartibi a-b, variant-b, g-b tarzida ekani ko'rsatiladi. Boshqa bir manbada qit'a - parcha, qism, juzv ekani va ikki, ya'ni butun she'rdan ajratib olingan parcha yoki mustaqil adabiy tur ma'nosida ishlatilishi aytiladi. Qit'a dubaytiy yoki rubiyga o'xshab muayyan baytlar mikdoriga ega emas, balkim u ikki va undan ortiq baytlada yoziladi, inchunin u turli vaznlarda bo'lishi mumkin (Musulmoniyon R. Nazariyai adabiyot- Dushanbe: Maorif, 1990.-S. 165-168). Qit'aga professor A. Fitratning ta'rifi: "azalning birinchi bayti bo'lmasa qolgani qit'a bo'ladi, boshqacha aytganda, qofiyasi har baytning oxirida

bo'lib, birinchi misrai qofiyasiz bo'lgan tizmalarga qit'a deyiladi. Ko'prok talabnomalar chaqirish bitiklari, nasihatlar qit'a shaklida yozilgandir" (Adabiyot qoidalari. - Toshkent: Uqituvchi, 1995.-B.50). Boshqa bir qo'llanmada: "Qit'a arabcha so'z bo'lib, bo'lak, qism, parcha ma'nolarini anglatadi. Qit'a lug'atlarda 1-parcha(adabiy asar); 3-kichin she'r; 3-musiqqa asari deb izohlanadi. Bu - she'riy tur rus va G'arbiy Yevropa she'riyatidagi fragment(parcha) deb nomlangan she'rlarga o'xshaydi. Odatda qit'a ikki va undan ortiq baytdan iborat bo'ladi (a-b, variant-b, g-b), ba'zan esa a-a, b-b, variant-v tizimida qofiyalanadi (Nosirov O, Jamolov S, Ziyoviddinov M. Uzbek klassik she'riyati janrlari.-Toshkent: Uqituvchi, 1979.-B. 153-154). Umuman olganda, qit'a - qadimiy she'r turi, u ixcham bkladi, unda fikr lo'nda va aniq bayon etiladi, murakkab usullar, kochiriq- kinoyalar deyarli uchramaydi, tasvir obe'kti bevosita ko'rsatiladi, baxolanadi, voqea-hodisalar asliga monand ifodalanadi(BoboevT. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: O'zbekiston, 2002. -B. 485-486).

O'zbek mumtoz adabiyotida qit'aning ilk namunasi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" (1353) asarida uchraydi, mana o'sha qit'a:

*Tama' dominda qolur qush emasmen,  
Tilim ayvon uza uchqon humomen.  
Qilichtek til bila tuttum jahonni,  
Qanoat mulki ichra podshomen.  
Harobot ichra masjidsa yerim bor,  
Kim ush ham rindmen, ham podshomen.  
Necha hashmatli sulton bo'lsa bo'lsun,  
Aytmon mol uchun madhu sanomen.  
Qiyomatqa tekin qolsin oting teb,  
Sening topqunchda bo'ldum oshnomen.*

Mumtoz adabiyotimizda Lutfiy, Navoiy, Bobur va boshqa shoirlar ijodida qit'a she'riy turi ko'plab uchraydi. Yuqoridagi ta'rif tavsiflar orasida qit'ada taxallus bo'lmaydi, degan aqida to'g'ri emasligi ko'rinadi. Boisi ba'zi qit'alarda taxallus katta birinchi baytdan boshlab uchrar ekan.

*Ey navoiy, kishiga berma ko'ngul,  
Agar ul hurdurur, yuksa pari  
Vasli naf'i buki chekkaysen jon,  
Ultururlek firoki darari. (Navoiy)*

*Ul mening joni jahonimga salom,  
Jondin ortiq mehriboniga salom*

*Bir zamon hali emasman yodidan*

*Munislu jonu ravonimga salom (Lutfiy)*

**Mustazod** - uning lug'aviy ma'nosi ziyod, ortiq, ortirma va ilova yoki qo'shimcha qilmoq demakdir, u janr sifatida o'z taraqqiyoti jarayonida bir tomondan xalq ijodiyoti bilan ikkinchi tarafdin g'azal janri bilan uzviy bog'likdik kasb etadi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da mustazod xususida quyidagilarni aytadi: *"Va yana xalq orasida bir surud borkim, hazaji musamman vaznida unga bayt bog'lab ham misraidin so'ngra hamul bahrning ilk ruknini bir qilib surud nag'amotiga rost keltirar ermish "* (Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik.)

Mustazod haqida A. Fitratning fikrlari ushbu xilda: "Bir g'azal yoziladir. Har misra har baytidan keyin shul misraning bir bo'lagi vaznida so'z ortiriladir. Bunga mustazod deyiladi. Misol:

*Ne usmavu, ne kesmadur ul zulfi sumansoy, ne g'amzayi jodu,*

*Mashshota senga zolim falakdur, magar, ey oy, xurshid ancha ko'zgu.*

*Qosh yosi bila kiprik o'qin har sari otsoq, imkon xato yo'q,*

*Har kimsaki, bo'lgay unga bu nav' o'ku yoy, tuz bo'lg'usi qobu.* (Navoiy)

(Adabiyot qoidalari.-Toshkent: Ukituvchi, 1995.-B.52.) Mustazod qoidasiga muvofiq katta misralarga albatga kichik, yarim misrachalar ilova etib boriladi. Butun misra va yarim misra, ya'ni misra va misrachalar tuliq misra yoki noto'liq misra bulardan murod butun miradagi fikr ilova etiluvchi yarim misrada davom etgiriladi, to'g'rirog'i to'ldiriladi. Mustazodning to'la va chala misralari o'zaro monand holatda emas, balki o'ziga alohida - alohida qofiya tizimiga ega bo'ladi, buni yuqoridagi mustazodda ham ko'rish mumkin. To'g'ri gohi to'la va chala misralarning o'zaro bir xil qofiyalanish holatlari ham uchrab turadi. Kizigi mustazod istilohi birinchi galda she'riy janrga nisbatan ishlatilsa, u ikkinchi holati musikaga nisbatan ishlatiladi. Yanada g'alati tomoni shundaki, to'la misralardan ilova misrachalar ajratib olinsa ham mavzu va ham mazmunga, umuman goya va mantikka zarar yetadi. Misol (tojik og'zaki ijodidan)

*Hurshid va bosh oyad, bosh past shavad,*

*Hush'yor va u menigarad mast shavad, pirohani chok.*

*Magrur mavosh va in hamoli xushi xud, ey dastash gul,*

*In ravnaki tu ham past shavad gul rezad hok* (Boboev Yu. Muqaddima adabiyotshunosy-Dushanbe, Irfin 1974-s 167) Mustazod eng qadimiy she'r shakllaridan biri bo'lib, uning xos xususiyatlari mavjud va unga qo'yiladigan talablar bor.

Birinchiidan iloviaviy misrachalar katta-yetakchi misra muidarijasini to'ldirish uning goyaviy magzini quvvatlash lozim. Ikkinchiidan kichik misrachalar she'rini umumiy

ruhiga ruq bagishlashi talab etiladi va nihoyat uchinchidan kichik misracha, albatta katta misraning ohang va vazniga mos bo'lishi kerak. Mustazod janri xususida topish olim R. Musulmonqulovning izlanishlari va kuzatishlari tahsinga loyiq (Nazariyai Zinsho va janrihoi adaby -Dushanbe Maorif 1987-88s 2 Nazariyachi adabiyot-Dushanbe Maorif 1990-334 s) olim mustazodning qator shakli va ko'rinishlari xususida fikr yuritar ekan ularni doimo misollar ko'magida quvvatlab boradi. Masalan, mustazod g'azal, ruboiy, qit'a, masnaviy janrlariga bog'lnsa, u shu janrlarning qonun-qoidalariga bo'ysunish shart. Bu holat hatto qofiyalarda ham o'z kuchini saqlaydi, bularga R. Musulmonqulov misollar ilova qiladi, shuningdek olim mustazodaning ikki to'liq misrali va bitta kichik misrali va yana bir tojik olimi Yu. Boboev mustazodning muxammas shakliga bir ajoyib misol keltiradi.

*Imro'z ba olam nabuvad ahli vaforo gayr az tu panohe,*

*Giranz baroitu shabu ro'z duoroaz har sari rohe,*

*To chankd ba zulfi tu biguem kigaro-bo nolayuohe,*

*Ey rehta savdoi tu xuni dili moroba hech gunohe*

*Bikvoz dame kushtai shemsheri zafaro* (Sayida Nasafiy) (Muqaddima adabiyotshunosy-Dushanbe Irfon 1974-s 168) bundan tashqari o'zbek mumtoz adabiyotida mustazodning qo'shaloq qisqa ikki misrali shaklini ilk bor Ogahiy ijodida uchratamiz.

*Ey yor, sanga ushbu jahon bog'i aro gul bir oshiki hayrak diydoriga shaydo.*

*Bir tuyftadur kokul mushkinga sunbul, ham hali parishon ham boshida savdo.*

(Nasirov . O , Jamolov. S, Ziyoviddinov. M o'zbek klassik she'riyati janlari -toshkent O'kituvchi, 1979 -b 112) o'zbek adabiyotining XX asr vakillaridan shoir Habibiy ijodiyda mustazod shakliga murojaat qilinganini ko'ramiz. Tojik adabiyotida bo'lsa S. Ayniy, A. Lohutiy , Payrav Sulaymoniy Boqi Rahimzoda va mushik Qanoat singari ijodkorlari mustazodning yangi ajoyib namunalarini yaratdilar.